



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№5

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

5-jild
5-son
May, 2026

May, 2026
Volume 5
Number 5

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal

**INNOVATSION IQTISODIYOT****ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL**

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:**Qarshi davlat texnika universiteti****Tahririyat Kengashi raisi:**

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

*Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.***Tahririyat manzili:**

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:**Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:**

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)
 Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)
 Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)
 Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)
 Kusainov Xalel Xaymullievich – i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)
 Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)
 Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)
 Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)
 Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)
 Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)
 Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)
 Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
 Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)
 Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
 Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)
 Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)
 Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
 Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
 Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)
 Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik
 Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor
 Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor
 Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor
 Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor
 Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor
 Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent
 Erkeyeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor
 Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent
 Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
 Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent
 Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
 Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent
 Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent
 Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
 Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
 Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent
 Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
 Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
 Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent
 Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
 Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent
 Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)
 Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)
 Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)
 Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакков Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
Economy of the region and industry
Экономика региона и отрасли



UZUMCHILIK TARMOG'INING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA UNING AHOLI DAROMADLARIGA TA'SIRI

Yuldashev Muxtor To'rabek o'g'li

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ВИНОГРАДАРСКОЙ ОТРАСЛИ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА ДОХОДЫ НАСЕЛЕНИЯ

Юлдашев Мухтор Турабек угли

DEVELOPMENT TRENDS OF THE VITICULTURE SECTOR AND ITS IMPACT ON POPULATION INCOME

Yuldashev Muxtor To'rabek ugli

Received: May 8, 2026 May: May 12, 2026 May: May 19, 2026 Published: June 1, 2026

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda, xususan Samarqand viloyatida dehqon va tomorqa xo'jaliklarida uzum yetishtirishning iqtisodiy ahamiyati hamda rivojlanish tendensiyalari statistik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida 2020–2024-yillarga oid statistik ma'lumotlar asosida uzum yetishtirish hajmi, hududlar va xo'jaliklar kesimidagi o'zgarishlar baholangan. Tahlillar natijasida uzumchilik tarmog'i aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim iqtisodiy ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan. Shu bilan birga, tarmoqda suv resurslari taqchilligi, saqlash va qayta ishlash infratuzilmasining yetarli rivojlanmaganligi hamda agrotexnologik muammolar mavjudligi asoslab berilgan. Tadqiqotda uzumchilikni barqaror rivojlantirish, dehqon va tomorqa xo'jaliklari daromadlarini oshirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi uzumchilik tarmog'ining aholi daromadlariga ta'sirini Samarqand viloyati misolida iqtisodiy-statistik jihatdan kompleks baholanganligi bilan izohlanadi.

Kalit so'zlar: uzumchilik tarmog'i, dehqon va tomorqa xo'jaliklari, aholi daromadlari, oziq-ovqat xavfsizligi, iqtisodiy samaradorlik, barqaror rivojlanish, statistik tahlil.

Abstract: This article statistically analyzes the economic significance and development trends of grape production in dehqan and household farms in Uzbekistan, particularly in the Samarkand region. Based on statistical data for 2020–2024, changes in grape production volumes across regions and farm categories were evaluated. The results of the study revealed that the viticulture sector plays an important economic role in increasing employment and household incomes. At the same time, the research identified several challenges in the sector, including water resource scarcity, insufficient development of storage and processing infrastructure, and agro-technological problems. The study also developed scientific and practical recommendations aimed at the sustainable development of viticulture, increasing the incomes of dehqan and household farms, and strengthening food security. The scientific novelty of the research lies in the comprehensive economic and statistical assessment of the impact of viticulture on household incomes based on the example of the Samarkand region.

Keywords: viticulture sector, smallholder and household farms, rural livelihoods, food security, economic efficiency, sustainable development, statistical analysis.

Аннотация: В данной статье статистически проанализированы экономическое значение и тенденции развития виноградарства в дехканских и приусадебных хозяйствах Узбекистана, в частности Самаркандской области. В ходе исследования на основе статистических данных за 2020–2024 годы была проведена оценка объемов производства винограда, а также изменений в разрезе регионов и категорий хозяйств. Результаты анализа показали, что виноградарство имеет важное экономическое значение в обеспечении занятости



naseleniya i povyshenii dokhodov domokhozyaystv. Vmeste s tem obosnovano nalichie v otrasli takih problem, kak defitsit vodnykh resursov, nedostatochnoe razvitiye infrastruktury khraneniya i pererabotki produktsii, a takzhe agrotekhnologicheskiye problemy. V issledovanii razrabotany nauchno-prakticheskiye predlozheniya, napravlennyye na ustoychivoe razvitiye vinoogradarstva, povysheniye dokhodov dekhkanskiye i priusadebnyye khozyaystv, a takzhe obespecheniye prodovol'stvennoy bezopasnosti. Nauchnaya novizna issledovaniya zaklyuchayetsya v kompleksnoy ekonomiko-statisticheskoy otsenke vliyaniya vinoogradarstva na dokhody naseleniya na primere Samarqandskoy oblasti.

Ключевые слова: виноградарство, дехканские и приусадебные хозяйства, доходы населения, продовольственная безопасность, экономическая эффективность, устойчивое развитие, статистический анализ.

KIRISH

Bugungi kunda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligida barqaror ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda aholi daromadlarini oshirish jahon mamlakatlari oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Global iqlim o'zgarishi, suv resurslari tanqisligi va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning ortib borishi agrar tarmoqda resurslardan samarali foydalanish va yuqori daromadli qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish zaruratini kuchaytirmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) ma'lumotlariga ko'ra, 2030-yilda ham dunyo bo'yicha qariyb 670 million kishi ocharchilik xavfi ostida qolishi prognoz qilinmoqda [1].

Dunyo miqyosida dehqon xo'jaliklari oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda muhim o'rin egallab, global oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmining yarmidan ortig'ini ta'minlaydi [2]. Shu jihatdan, dehqon va tomorqa xo'jaliklarini rivojlantirish qishloq aholisining bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qishloq xo'jaligining yuqori daromadli tarmoqlaridan biri bo'lgan uzumchilik aholi daromadlarini oshirish, oziq-ovqat sanoatini xom ashyo bilan ta'minlash hamda eksport salohiyatini kengaytirishda muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasida ham uzumchilik tarmog'ini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda yangi tokzorlarni tashkil etish, intensiv texnologiyalarni joriy qilish hamda sohaga subsidiyalar ajratish orqali uzum mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, so'nggi to'rt yilda 52 ming gektarda yangi tokzorlar tashkil etilib, sohaga 210 milliard so'm subsidiya ajratilishi natijasida meva-sabzavot eksportida uzum mahsulotlarining ulushi ikki barobarga oshgan [3].

Bugungi kunda respublikamizda uzum mahsulotlarining asosiy qismi dehqon va tomorqa xo'jaliklarida yetishtirilmoqda. Ayniqsa, Samarqand viloyati uzum yetishtirish bo'yicha yetakchi hududlardan biri hisoblanib, hududning qulay agroiklim sharoiti va tarixiy tajribasi tarmoqni rivojlantirish uchun muhim iqtisodiy salohiyat yaratmoqda. Shu bilan birga, uzumchilik tarmog'ida saqlash, qayta ishlash, logistika va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq muammolar mavjud bo'lib, ular dehqon va tomorqa xo'jaliklari daromadlarining barqaror o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi Samarqand viloyatida dehqon va tomorqa xo'jaliklarida uzum yetishtirishning hozirgi holatini iqtisodiy-statistik jihatdan tahlil qilish, uzumchilik tarmog'ining aholi

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

bandligi va daromadlariga ta'sirini baholash hamda uzum mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Qishloq xo'jaligida uzumchilik tarmog'i oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish, aholi bandligi va daromadlarini ko'paytirishda muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida uzum yetishtirish qishloq aholisi farovonligini oshirishda yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lgan faoliyat turi sifatida ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. So'nggi yillarda uzumchilikning iqtisodiy samaradorligi, suv resurslaridan foydalanish, risklarni boshqarish, ekologik barqarorlik hamda aholi daromadlariga ta'siri masalalari ilmiy tadqiqotlarning asosiy yo'nalishiga aylangan.

S.Dogliotti va boshqalar oilaviy fermer xo'jaliklarida barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalalarini tadqiq etib, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, agrotekhnologiyalarni takomillashtirish va uzoq muddatli strategik rejalashtirish fermer xo'jaliklari samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaganlar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik barqaror ishlab chiqarish tizimlarini joriy qilish oilaviy xo'jaliklar daromadini oshirish bilan birga tuproq degradatsiyasining oldini olishga xizmat qiladi [4].

Asatryan va boshqalar Armanistonning Armavir hududida uzum yetishtiruvchi xo'jaliklarning iqtisodiy samaradorligini DEA va Tobit modellar asosida baholab, xo'jaliklarning o'rtacha samaradorlik darajasi 0,72 ni tashkil etishini aniqlaganlar. Mualliflar uzum navlari, xo'jalik hajmi va mahsulotni sotish narxi xo'jalik samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini asoslab berganlar [5]. Tadqiqotda uzumchilikning qishloq hududlarida bandlik va daromadlarni oshirishdagi roli alohida qayd etilgan.

Pradhan va boshqalar Hindistonning Nashik hududida uzum yetishtiruvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini o'rganib, uzumchilikning hudud iqtisodiyotidagi ulushi yuqori ekanligini aniqlaganlar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, uzum yetishtirish fermerlarning daromad darajasi, yer maydoni, irrigatsiya tizimi va bozor integratsiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [6]. Mualliflarning fikricha, uzumchilik eksportbop mahsulot sifatida qishloq aholisi turmush darajasini oshirishda muhim manba hisoblanadi.

Yilmaz va boshqalar Turkiyada uzum yetishtirishda davlat subsidiyalangan sug'urta tizimining ahamiyatini o'rganib, risklarni boshqarish tizimi

Qarshi davlat texnika universiteti



uzumchilik barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynashini ko'rsatganlar. Tadqiqotda fermerlarning ta'lim darajasi, kreditdan foydalanish imkoniyati, irrigatsiya tizimi va agrotehnologik yondashuvlari uzum yetishtirish samaradorligiga bevosita ta'sir qilishi aniqlangan [7]. Shu bilan birga, sug'urta tizimini rivojlantirish ishlab chiqarish risklarini kamaytirib, fermerlar daromadlarini barqarorlashtirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Mamasoliev va boshqalar tomonidan Samarqand viloyatida olib borilgan tadqiqotlarda uzum yetishtiruvchi xo'jaliklarda suv resurslarini boshqarish masalalari chuqur o'rganilgan. Tadqiqotda Samarqand viloyatining Ishtixon, Payariq va Qo'shrabot tumanlarida uzum yetishtiruvchi 384 ta xo'jalik o'rganilib, suvdan foydalanishda hamkorlikka ta'sir etuvchi omillar strukturaviy tenglamalar modeli (SEM) yordamida tahlil qilingan [8]. Natijalarga ko'ra, ijtimoiy normalar va ekologik xavotirlar fermerlarning suvdan birgalikda foydalanishga tayyorligini oshiradi, iqtisodiy cheklovlar esa hamkorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotda suv resurslarining cheklanishi uzumchilik samaradorligi va aholi daromadlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan.

Shuningdek, Mamasoliev va hammualliflarining Samarqand viloyatida dehqon xo'jaliklarida uzum yetishtirishning oilaviy daromadlarga ta'siri bo'yicha olib borgan tadqiqoti ushbu yo'nalishdagi muhim ilmiy ishlardan biri hisoblanadi. Tadqiqotda Samarqand viloyatining 13 ta qishlog'ida 100 ta dehqon xo'jaligi o'rganilib, uzumchilik daromadlari, iste'mol xarajatlari va oziq-ovqat xavfsizligiga ta'siri baholangan [9]. Natijalarga ko'ra, vitikultura dehqon xo'jaliklari umumiy daromadining 84,1 foizini tashkil etib, oilalar farovonligini oshirishda muhim manba sifatida namoyon bo'lgan. Shu bilan birga, suv tanqisligi, infratuzilma yetishmasligi, kasallik va zararkunandalar, bozorga chiqishdagi muammolar hamda kapital yetishmovchiligi uzumchilik rivojlanishidagi asosiy muammolar sifatida qayd etilgan.

Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, uzumchilik qishloq xo'jaligida yuqori daromadli va eksportga yo'naltirilgan tarmoqlardan biri bo'lib, aholi bandligi, oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq hududlari iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, suv resurslaridan samarali foydalanish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, risklarni boshqarish va fermer xo'jaliklari o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish uzumchilikning iqtisodiy samaradorligini oshirishning asosiy omillari sifatida e'tirof etilgan.

TADDIQOT METODOLIGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda, xususan Samarqand viloyatida dehqon va tomorqa xo'jaliklarida uzum yetishtirishning aholi daromadlariga ta'sirini o'rganishda iqtisodiy-statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida uzumchilik tarmog'ining rivojlanish tendensiyalarini baholash, hududlar va xo'jaliklar kesimidagi o'zgarishlarni aniqlash hamda tarmoqning iqtisodiy ahamiyatini yoritishda qiyosiy taqqoslash, dinamik qatorlar tahlili, statistik tahlil va umumlashtirish usullari qo'llanildi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2020–2024-yillarga oid rasmiy statistik ma'lumotlari, uzumchilik tarmog'iga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari hamda xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR


O'zbekiston Respublikasining qulay tuproq-iqlim sharoiti uzumning turli vegetatsiya davriga ega bo'lgan, ya'ni ertapishar va kechpishar navlarini yetishtirish imkonini beradi. Ushbu holat mamlakatda uzumchilik tarmog'ini rivojlantirish, ichki bozorda aholini yil davomida sifatli uzum mahsulotlari bilan ta'minlash hamda eksport salohiyatini oshirish uchun muhim iqtisodiy asos yaratadi.

Uzum mahsulotlari foydalanish yo'nalishi va qayta ishlash texnologiyasiga ko'ra vinochilik mahsulotlari (vino, konyak, shampn va boshqalar), sharbat mahsulotlari (tabiiy sharbatlar, yarim fabrikatlar va konsentratlar), konservalangan mahsulotlar (kompot, murabbo, jem, marinad va uzum pastasi) hamda quritilgan mahsulotlar ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi. Shu jihatdan uzumchilik oziq-ovqat va qayta ishlash sanoatini rivojlantirishda muhim xom ashyo bazasi hisoblanadi.

Jahon miqyosida yetishtirilayotgan uzum mahsulotlarining asosiy qismi qayta ishlash sanoatiga yo'naltiriladi. Dunyoda yetishtiriladigan uzumning qariyb (taxminan 72min t) yoki 83 foizi vino mahsulotlari ishlab chiqarishda, 12 foizga yaqini (xo'raki navlar) yangiligicha iste'mol qilishda hamda 5 foizi quritilgan mahsulotlar tayyorlashda foydalaniladi [10]. Mazkur ko'rsatkichlar uzumchilik tarmog'ining global oziq-ovqat sanoati va xalqaro savdodagi strategik ahamiyatini ko'rsatadi.

Uzumchilik tarmog'ining respublikamizda rivojlanishi aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish bilan bir qatorda oziq-ovqat va qayta ishlash sanoatini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, uzumchilik qishloq hududlarida aholi bandligini ta'minlash, dehqon va tomorqa xo'jaliklari daromadlarini oshirish hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishda yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, iqlim o'zgarishi, suv resurslari taqchilligi va yog'ingarchilik miqdorining kamayishi sharoitida uzumchilikning nisbatan moslashuvchan va yuqori daromad keltiruvchi tarmoq sifatida rivojlanishi uning iqtisodiy ahamiyatini yanada oshirmoqda.

So'nggi yillarda respublikamizda uzum yetishtirish hajmlarining o'sishi tarmoqni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining kengayishi, yangi tokzorlarning tashkil etilishi hamda qayta ishlash sanoatining rivojlanishi bilan izohlanadi. Shu bois, 2020–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida uzum mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va uning xo'jaliklar kesimidagi tarkibiy o'zgarishlarini statistik jihatdan tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.




1-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2020-2024-yillarda uzum yetishtirish bo'yicha ko'rsatkichlar (ming tonna)²⁹

1-rasm ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2024-yillar davomida O'zbekiston Respublikasida uzum yetishtirish hajmida umumiy o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Xususan, 2020-yilda 1639,2 ming tonnani tashkil etgan uzum ishlab chiqarish hajmi 2024-yilda 1825,8 ming tonnaga yetib, tahlil qilinayotgan davr mobaynida 11,3 foizga oshgan. Shu bilan birga, tahlil natijalari uzum yetishtirish hajmida yillar kesimida barqaror o'sish kuzatilmaganligini ham ko'rsatadi. Jumladan, 2022-yilda 1760,6 ming tonnani tashkil etgan uzum ishlab chiqarish hajmi 2023-yilda 1737,6 ming tonnaga tushib, 1,4 foizga kamaygan. Ushbu holat uzumchilik tarmog'ida ayrim tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, iqlim o'zgarishi, suv resurslari taqchilligi, agrotexnologik tadbirlarning yetarli darajada tashkil etilmaganligi hamda ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi uzum yetishtirish hajmlarining barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin.

Biroq, 2024-yilda uzum yetishtirish hajmining keskin oshishi tarmoqda davlat tomonidan olib borilgan qo'llab-quvvatlash choralari, intensiv tokzorlar maydonining kengayishi va mahsulot yetishtirish samaradorligining ortib borayotganligini ko'rsatadi. Mazkur holat uzumchilik tarmog'ining qishloq xo'jaligida yuqori iqtisodiy salohiyatga ega ekanligini hamda aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini anglatadi.

Respublikada uzum yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar kesimida tahlil qilish uzumchilik tarmog'ining rivojlanish tendensiyalari hamda mavjud muammolarni aniqlash imkonini beradi. Tahlil natijalariga ko'ra, 2020–2024-yillar davomida uzum yetishtirish hajmida asosiy ulush dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelgan. Xususan, 2024-yilda ushbu xo'jaliklarda 940,5 ming tonna uzum yetishtirilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan sezilarli darajada oshganligini ko'rsatadi. Fermer xo'jaliklarida ham uzum ishlab chiqarish hajmi o'sib, 2024-yilda 834,9 ming tonnaga yetgan.

Shu bilan birga, tahlillar xo'jaliklar kesimida uzum yetishtirish hajmida barqaror o'sish kuzatilmaganligini ko'rsatadi. Jumladan, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida 2022-yilda 920,3 ming tonna uzum yetishtirilgan bo'lsa, 2023-yilda ushbu ko'rsatkich 911,0 ming tonnaga kamaygan. Xuddi shuningdek, fermer xo'jaliklarida ham 2022-yildagi 795,8 ming tonnalik ishlab chiqarish hajmi 2023-yilda 771,1 ming tonnaga tushgan. Mazkur holat uzumchilik tarmog'ida suv resurslari taqchilligi, iqlim o'zgarishi, agrotexnologik tadbirlarning yetarli darajada tashkil etilmaganligi hamda ishlab chiqarish xarajatlarining ortib borishi kabi muammolar mavjudligini ko'rsatadi. (2-rasm).



2-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2020-2024-yillarda uzum yetishtirish bo'yicha xo'jaliklar kesimida ko'rsatkichlar, (ming tonna)³⁰

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



Biroq, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalarda uzum yetishtirish hajmida nisbatan barqaror o'sish kuzatilgan bo'lib, 2020-yildagi 35,8 ming tonnalik ko'rsatkich 2024-yilda 50,4 ming tonnaga yetgan. Ushbu natijalar uzumchilik tarmog'ida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun zamonaviy agrotexnologiyalarni keng joriy etish, suv resurslaridan samarali foydalanish hamda mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash tizimini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Respublikada uzum yetishtirish ko'rsatkichlarini hududlar kesimida tahlil qilish natijalari 2020–2024-yillar davomida ayrim viloyatlarda barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilganligini ko'rsatadi. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Sirdaryo va Xorazm viloyatlarida uzum yetishtirish hajmi yildan-yilga oshib

borgan. Mazkur holat hududlarda uzumchilik tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat qo'llab-quvvatlash choralari, yangi tokzorlar tashkil etilishi hamda dehqon va tomorqa xo'jaliklari faoliyatining kengayishi bilan izohlanadi.

Tahlil natijalariga ko'ra, 2024-yilda uzum yetishtirish hajmining eng past ko'rsatkichlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, Sirdaryo va Jizzax viloyatlariga to'g'ri kelgan. Bu holat mazkur hududlarning agroiklim sharoiti, suv resurslari taqchilligi hamda uzumchilikka ixtisoslashuv darajasining nisbatan pastligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, respublikada uzum yetishtirish bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Samarqand viloyatiga tegishli bo'lib, 2024-yilda mamlakatda yetishtirilgan jami uzum mahsulotlarining 36,4 foizi ushbu hudud hissasiga to'g'ri kelgan.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida 2020-2024-yillarda uzum yetishtirish bo'yicha viloyatlar kesimida ko'rsatkichlar, (ming tonna).

№	Hududlar	Yillar				
		2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	10,2	11,0	11,5	11,6	14,4
2	Andijon viloyati	88,2	80,9	81,7	82,2	83,8
3	Buxoro viloyati	208,3	205,5	218,7	221,4	232,4
4	Jizzax viloyati	28,0	29,8	30,3	20,8	33,0
5	Qahqadaryo viloyati	93,8	100,6	105,2	110,0	112,7
6	Navoiy viloyati	78,9	85,2	90,3	85,6	90,6
7	Namangan viloyati	130,9	137,2	142,2	151,7	160,8
8	Samarqand viloyati	555,0	601,9	625,4	639,2	666,1
9	Surxondaryo viloyati	95,5	102,6	104,9	74,5	91,1
10	Sirdaryo viloyati	13,1	14,0	14,4	14,8	15,5
11	Toshkent viloyati	115,3	100,6	103,4	87,8	84,5
12	Farg'ona viloyati	177,0	179,2	184,0	179,1	189,4
13	Xorazm viloyati	45,0	46,6	48,6	49,9	51,5


Mazkur natija Samarqand viloyatining qulay tuproq-iqlim sharoiti, uzumchilik bo'yicha tarixiy tajribasi hamda tarmoqning hudud iqtisodiyotida yuqori ulushga egaligi bilan izohlanadi. Shuningdek, 2020-yilga nisbatan 2024-yilda uzum yetishtirish hajmining eng yuqori o'sish sur'ati Qoraqalpog'iston Respublikasida kuzatilib, o'sish 41,4 foizni tashkil etgan. Sirdaryo viloyatida esa ushbu ko'rsatkich 18,3 foizga teng bo'lgan. Umuman olganda, respublikada qishloq xo'jaligini rivojlantirish va uzumchilik tarmog'ini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan islohotlar natijasida

2020–2024-yillar davomida uzum yetishtirish hajmi 11,3 foizga oshganligini kuzatish mumkin (1-jadval).

Tahlil natijalariga ko'ra, 2024-yilda Samarqand viloyatda yetishtirilgan uzum mahsulotlari respublika bo'yicha jami ishlab chiqarilgan uzumning 36,4 foizini tashkil etgan. Mazkur holat viloyatining qulay tuproq-iqlim sharoiti, uzumchilik bo'yicha tarixiy tajribasi hamda tarmoqning hudud iqtisodiyotidagi yuqori ahamiyati bilan izohlanadi.

Shuningdek, viloyatda uzum yetishtirish xo'jaliklar kesimida tahlil qilinganda asosiy ulush fermer xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatiladi. Xususan, 2024-yilda fermer xo'jaliklari tomonidan yetishtirilgan uzum mahsulotlari jami ishlab chiqarishning 60,4 foizini tashkil etgan bo'lsa, dehqon va tomorqa xo'jaliklari

ulushi 37,9 foizga teng bo'lgan. Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalarning ulushi esa nisbatan past bo'lib, 1,7 foizni tashkil etgan. Ushbu natijalar Samarqand viloyatida uzum yetishtirish asosan fermer hamda dehqon va tomorqa xo'jaliklari faoliyati asosida shakllanayotganligini ko'rsatadi. (3-rasm).



3-rasm. Samarqand viloyatida 2020-2024-yillarda xo'jaliklar kesimida uzum yetishtirish bo'yicha ko'rsatkichlar (ming tonna)³¹

Tahlil natijalari uzumchilik tarmog'ida ishlab chiqarish hajmlarining o'sishi kuzatilayotgan bo'lsada, barqaror rivojlanishni ta'minlashda ayrim muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda. Xususan, suv resurslari taqchilligi, iqlim o'zgarishi, agrotexnologik tadbirlarning yetarli darajada tashkil etilmaganligi, mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash infratuzilmasining rivojlanmaganligi uzum yetishtirish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli, respublikamizda uzumchilik tarmog'idagi mavjud muammolarni bartaraf etish, tarmoqni yanada rivojlantirish hamda aholi bandligi va daromadlarini oshirish maqsadida qator davlat dasturlari va me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilmoqda.

Hukumat tomonidan dehqon va tomorqa xo'jaliklari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, aholi

daromadlarini oshirish, bandlikni ta'minlash hamda oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonlariga ilg'or xorijiy texnologiyalarni joriy etish, mahsulotlarni saqlash va sotish zanjirini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, so'nggi olti yil davomida respublikamizda uzumchilik tarmog'ini rivojlantirish uchun yangi yer maydonlarini ajratish, intensiv tokzorlarni tashkil etish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va realizatsiya qilish tizimida qulay iqtisodiy sharoitlar yaratishga katta e'tibor qaratilayotganligini kuzatish mumkin (2-jadval).

2-jadval.

O'zbekiston Respublikasida uzumchilik tarmog'ida mahsulot ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashchi huquqiy hujjatlar xronologiyasi

№	Hujjat raqami va qabul qilingan sana	Asosiy mazmuni
	O'zR VMQ -180-son, 2021-yil 03-aprel	Intensev texnologiyalarga asoslangan bog' va tokzorlarni shuningdek, qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, tayyorlash va saqlash infratuzilmasini aholi va tadbirkorlik subyektlariga "tayyor holda topshirishning" zamonaviy mexanizmlarini joriy etish orqali aholi bandligini ta'minlash.
	O'zR PQ-5200-son 2021-yil 28-iyul	Mamlakatimizda uzumchilikni yanada rivojlantirish, uzum yetishtirish, uni qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha klaster tizimini yo'lga qo'yish, alkogol bozorini tartibga solishning samarali mexanizmlarini keng joriy etgan holda respublikani sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash, sohaning eksport salohiyatini kuchaytirish, investitsion jozibadorligini oshirish, shuningdek, vinochilik turizmini (enoturizm) rivojlantirish.
	O'zR PQ-260-son, 2023-yil 03-avgust	Mamlakatimizda uzumchilik va vinochilik sohasini kelgusida yanada barqaror rivojlantirish, yangi istiqbolli sanoatbop uzum navlarini ko'paytirish va yetishtirishni yo'lga qo'yish, qayta ishlash korxonalarini xom ashyo bazasi bilan ta'minlashni mustahkamlash va moliyaviy qo'llab-quvvatlash, malakali

³¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

		mutaxassislarni tayyorlash, shuningdek, uzum va vinochilik mahsulotlari eksporti hajmlarini oshirish.
	O'zR PQ-4549-son 2019-yil 11 dekabr	Meva-sabzavot va uzumchilik sohasida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport hajmini oshirish, foydalanishdan chiqqan va lalmi yerlarni o'zlashtirish, paxta, galladan qisqartiriloyotgan maydonlarga eksportbop qishloq xo'jaligi ekinlari ekishni ko'paytirish, shuningdek, bog', tokzor va issiqxonalar imkoniyatlaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish.
	O'zR PQ-4239-son, 2019-yil 14-mart.	Meva-sabzavotchilik sohasida qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishni rag'batlantirish, sifatli meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish va uning eksporti barqarorligini ta'minlash, mazkur mahsulot ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirish.
	O'zR PQ-20-son, 2021-yil 23-nyabr	Aholining daromad topishga qaratilgan tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, aholiga agrar tarmoqda o'z biznesini tashkil etishga ko'maklashish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda dehqon xo'jaliklarining ulushini oshirish va qishloq xo'jaligini diversifikatsiyalash orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash.
	O'zR PQ-3573-son 2018-yil 28-fevral	Alkogolli mahsulotlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilishni tubdan takomillashtirish, sohani boshqarishning ilg'or texnologiyalarini joriy etish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va korxonalarning eksport salohiyatini oshirish.

An'anaviy oziq-ovqat ishlab chiqarish zanjiri mexanizmini takomillashtirish va aholi soning yildan yilga o'sib borishi, ularning ish bilan ta'minlanish hamda mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini, ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlash, agrar sohada aholining tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash orqali ularning daromadlarini oshirish asosiy vazifalardan hisoblanadi[11]. Olib borilgan tadqiqotlar natijalari O'zbekistonda, xususan Samarqand viloyatida uzumchilik tarmog'i qishloq xo'jaligining iqtisodiy jihatdan muhim va yuqori daromad keltiruvchi yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Tahlillar natijasida 2020–2024-yillar davomida respublikada uzum yetishtirish hajmi 11,3 foizga oshgani aniqlanib, bu holat uzumchilik tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat qo'llab-quvvatlash siyosati, yangi tokzorlar tashkil etilishi hamda mahsulotlarga bo'lgan talabning ortib borishi bilan izohlandi. Ayniqsa, Samarqand viloyatining respublika bo'yicha jami uzum yetishtirishdagi ulushi 36,4 foizni tashkil etgani ushbu hududning uzumchilikka ixtisoslashgan yetakchi viloyatlardan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida uzum yetishtirish asosan dehqon va tomorqa hamda fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishi aniqlandi. Bu esa uzumchilik tarmog'ining qishloq aholisi bandligini ta'minlash va oilaviy daromadlarni oshirishdagi ahamiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi. Xorijiy tadqiqotlarda ham uzumchilik kichik xo'jaliklar daromadlarini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va qishloq hududlari iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ta'kidlangan. Xususan, Lwelamira va boshqalar hamda Mamasoliev va hammualliflarining tadqiqotlarida uzumchilik oilaviy xo'jaliklar umumiy daromadining muhim qismini shakllantirishi asoslab berilgan.

Shu bilan birga, tahlil natijalari uzum yetishtirish hajmida barqaror o'sish kuzatilmaganligini ham ko'rsatdi. Jumladan, 2022-yilga nisbatan 2023-yilda uzum yetishtirish hajmining pasayishi suv resurslari taqchilligi, iqlim o'zgarishi, agrotexnologik tadbirlarning

yeterli darajada tashkil etilmaganligi hamda ishlab chiqarish xarajatlarining ortib borishi bilan bog'liq ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida yer maydonlarining cheklanganligi, mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda zamonaviy agrotexnologiyalarni qo'llash darajasining pastligi tarmoq samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Olib borilgan tahlillar va tadqiqot natijalari asosida uzumchilik tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

- dehqon va tomorqa xo'jaliklarida suv tejovchi innovatsion sug'orish texnologiyalarini keng joriy etish;
- uzum mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash va sotish infratuzilmasini rivojlantirish;
- mahsulot ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi savdo zanjirini qisqartirish orqali dehqon xo'jaliklari daromadlarini oshirish;
- uzum yetishtiruvchilar uchun agrotexnologik bilim va ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan trening va konsalting xizmatlarini kengaytirish;
- eksportbop va yuqori hosilli uzum navlarini ko'paytirish hamda intensiv tokzorlar maydonini kengaytirish.

Umuman olganda, uzumchilik tarmog'ini samarali rivojlantirish qishloq hududlarida aholi bandligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish hamda aholi daromadlarini ko'paytirishda muhim iqtisodiy omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli, tarmoqda mavjud muammolarni bartaraf etish va innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish uzumchilikning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

Yuldashev Muxtor To'rabek o'g'li Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti, "Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi" kafedrası tayanch doktoranti / Юлдашев Мухтор Турабек угли базовый докторант



кафедры «Экономика и бухгалтерский учёт» Самаркандского института агроинноваций и исследований / Yuldashev Muxtor To‘rabek ugli Basic doctoral student of the Department of “Economics and Accounting”, Samarkand Institute of Agro-Innovations and Research

E-mail: ymuxtor93@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-7992-7142>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. S Khamraeva, and N Ochilova, Analysis of factors to increase the efficiency of the use of peasant farms and the land of the field, E3S Web of Conferences 392, 01048 (2023)
2. Yuldashev M Dehqon xo‘jaliklarida uzum yetishtirishning daromatlariga ta‘sirini iqtisodiy baholash // AGRO ILM ilmiy-amali jurnal, Maxsus son 6 [115], 2025
3. Yuldashev M., Qalandarov R., Dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida uzum yetishtirish va qayta ishlashning oila iqtisodiy daromatlariga ta‘sirini takomillashtirishning nazariy asoslari // AGRO ILM ilmiy-amali jurnal, Maxsus son 6 [118] 2025
4. S.Dogliotti, M.C.García, S.Peluffo, J.P. Dieste, A.J.Pedemonte, G.F.Bacigalupe, M.Scarlato, F.Alliaume, J.Alvarez, M.Chiappe, W.A.H.Rossing// Co-innovation of family farm systems: A systems approach to sustainable agriculture// Agricultural Systems (2013) journal homepage: www.elsevier.com/locate/agsy
5. Hovhannes Asatryana, Vardan Aleksanyanb, Samvel Asatryanc and Meri Manucharyan// Analyzing commercial grape farm efficiency in Armavir region (Armenia) by using two-stage empirical approach.// Statistical Journal of the IAOS 40 (2024) 149–160
6. Avinash Suresh Rao Pradhan, Dr. Nitin Barker and Akash Rai// Socio-economic status of grape growers in Nashik district, Maharashtra: A comprehensive study// International Journal of Agriculture Extension and Social Development, Volume 7; Issue 2; Jan 2024; Page No. 101-105
7. Hasan Yilmaz, Meltem Merkez, Nukhet Unlu// An Empirical Analysis on the Determinants of Government-subsidised Crop Insurance Purchase in Grape Production in Turkey// Erwerbs-Obstbau (2017) 59:51–60
8. S. A. Mamasoliev, M. Kusadokoro, T. Maru, S. Hasanov, Y. Kawabata.// Factors Influencing Willingness to Collaborate on Water Management: Insights from Grape Farming in Samarkand, Uzbekistan// Sustainability 2025, 17(15), 6991; <https://doi.org/10.3390/su17156991>
9. Sodikjon Mamasoliev, Yoshiko Kawabata, Atsushi Chitose, Masaaki Yamada// Impact of grape production on improved family income in Uzbekistan: Case study of small-scale grape producers in the Samarkand region, Republic of Uzbekistan.// Journal of Arid Land Studies, 32-S, 267-272 (2022)
10. Lwelamira, James; Wambura, Patrick; Safari, John G “Grapevine Farming and its Contribution to Household income and Welfare among Smallholder Farmers in Dodoma Urban District, Tanzania” Moshi Co-Operative University. 2015
11. X.Пардаев, Ш.Ҳасанов “Озиқ-овқат маҳсулотларини ишлаб чиқариш занжири субъектлари ўртасида иқтисодий муносабатларни такомиллаштиришнинг назарий асослари” Илмий-амалий Агроиқтисодиёт журналы 1(15) 2020 йил.



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz